



O'ZBEK TILIDA "VIJDON" LEKSEMASINING SEMANTIK, DERIVATSION VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Nurmamatova Maftuna Zarifjonovna

Navoiy davlat universiteti

Tillar fakulteti 1-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19045732>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 12-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 14-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 16-mart 2026 yil

KEYWORDS

*leksik kategoriya, semantika,
derivatsiya, pragmatika.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada "vijdon" tushunchasining semantik tarkibi, derivatsion imkoniyatlari hamda pragmatik funksiyalari tizimli ravishda yoritilib, uning axloqiy baholash va normativ mazmun bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi. Tadqiqot davomida vijdon tushunchasining til va tafakkur munosabatidagi o'рни ochib beriladi.

Zamonaviy tilshunoslikda leksik birliklarni o'rganish faqat ularning nominativ vazifasi bilan cheklanib qolmay, balki so'zlarning konseptual, semantik, derivatsion va pragmatik xususiyatlarini aniqlashni ham talab etadi. Shu jihatdan, ayrim leksemalar alohida so'z bo'lishi bilan birga ma'lum bir semantik maydonni tashkil etuvchi markaziy tushuncha sifatida namoyon bo'ladi. Til ijtimoiy ongning muhim shakli bo'lib, unda insonning borliqqa munosabati, axloqiy qadriyatlari va ichki kechinmalari aks etadi. Ayniqsa, ma'naviy-axloqiy tushunchalarni ifodalovchi leksik birliklar tilshunoslik tadqiqotlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday tushunchalardan biri "vijdon" bo'lib, u insonning ichki nazorat mexanizmi, axloqiy mas'uliyat va baholash mezoni sifatida namoyon bo'ladi.

"Vijdon" tushunchasi nafaqat falsafa va psixologiya balki, lingvistika fanining ham tadqiqot obyektidir. Chunki mazkur tushuncha til orqali ifodalanib, nutq jarayonida muayyan kommunikativ vazifalarni bajaradi. Ushbu maqolada "vijdon" leksik kategoriyasi semantik, derivatsion va pragmatik qatlamlar asosida kompleks tahlil qilinadi. Semantik tahlil "vijdon"ning ma'naviy qirralarini, pragmatik tahlil nutqdagi qo'llanilishini, derivatsion tahlil esa so'z yasallishini o'rganadi. Ushbu tahlillar vijdonning til sistemasidagi o'rnini aniqlashga yordam beradi.

"Lingvistik kategoriya – til tizimida birliklarni muayyan umumiy belgi, ma'no yoki funksiyaga ko'ra guruhlash asosida shakllanadigan ilmiy tushunchadir. U til hodisalarini tartibga solish, ularning o'zaro munosabatlarini aniqlash va tizimli tahlil qilish imkonini beradi¹". Shu jihatdan qaraganda, lingvistik kategoriya til birliklarini tartibga soluvchi va ularning ichki mohiyatini ochib beruvchi muhim nazariy vosita hisoblanadi. Til tizimidagi har bir birlik, xususan, leksik birliklar ham ma'lum semantik va funksional belgilar asosida muayyan kategoriyaga mansub bo'ladi. Bu esa til hodisalarini tasniflash, ularning o'zaro

¹Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 2002.

munosabatlarini aniqlash hamda mazmuniy chegaralarini belgilash imkonini beradi. Tahlil qilinayotgan har qanday leksik birlik uchun bu muhim jarayondir. Lingvistik kategoriyalar tilning barcha sathlarida fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va semantik darajalarda mavjud bo'lib, har bir sathga xos umumlashtiruvchi belgilarni ifodalaydi.

Lingvistik kategoriyaning keng ma'noda yoritadigan bo'lsak, tilning muhim va takrorlanuvchi xususiyatlarini aks ettiruvchi abstrakt birlik bo'lib, u til birliklari o'rtasidagi mantiqiy, semantik va funksional aloqalarni ochib berishga xizmat qiladi². Ayniqsa, abstrakt ma'noni ifodalovchi leksemalarni tahlil qilishda lingvistik kategoriyalarning ahamiyati yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki bunday leksemalar faqat lug'aviy ma'nosi bilan emas, balki madaniy, axloqiy va pragmatik qatlamlar bilan ham bog'liq holda shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, "vijdon" leksemasi ham til tizimida muhim semantik birlik sifatida qaraladi. U insonning ichki axloqiy nazorati, ma'naviy mas'uliyati va o'z xatti-harakatlariga baho berish qobiliyatini ifodalovchi murakkab tushunchani bildiradi. Demak, "vijdon" leksemasini lingvistik kategoriya nuqtai nazaridan tahlil qilish uning semantik tarkibini, boshqa axloqiy tushunchalar bilan munosabatini hamda nutq jarayonidagi funksional imkoniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa mazkur leksemaning til tizimidagi o'rnini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Lingvistik kategoriya quyidagi xususiyatlari mavjud bo'lib, ular:

1. Umumlashtiruvchanlik – bir xil yoki o'xshash bo'lgan til birliklarini birlashtiradi.
2. Tizimlilik – har bir kategoriya til tizimida boshqa kategoriyalar bilan uzviy bog'langan holda mavjud bo'ladi.
3. Qarshilanish (oppozitsiya) – ko'pincha kategoriyalar qarama-qarshi a'zolar orqali namoyon bo'ladi (masalan, birlik-ko'plik, hozirgi zamon-o'tgan zamon)
4. Ma'no va shakl birligi – lingvistik kategoriya nafaqat ma'noni, balki uni ifodalovchi shakliy vositalarni ham o'z ichiga oladi³.

Shu bilan birga lingvistik kategoriyaning turlari mavjud. Ular: grammatik, leksik-semantik va pragmatik.

1. Grammatik kategoriyalar bu so'z va gapning grammatik xususiyatlarini ifodalaydi: son, zamon, kelishik, nisbat va h.k⁴.
2. Leksik-semantik kategoriyalar esa so'zlarning umumiy semantik belgilariga asoslanadi: belgi, harakat va holat kabi.
3. Pragmatik kategoriyalar nutq jarayonida so'zlovchining munosabatini aks ettiradi: baholash, subyektivlik va ekspressivlik.

"Vijdon" leksemasi semantik jihatdan ko'p qatlamli bo'lib, u o'z tarkibida quyidagi asosiy semalarni mujassamlashtiradi: axloqiy baholash, ichki nazorat, mas'uliyat hissi, pushaymonlik va o'z-o'zini tahlil qilish⁵.

Mazkur semalar "vijdon" leksemasi bilan bog'liq bo'lgan boshqa birliklarda ham barqaror tarzda namoyon bo'ladi: vijdonli, vijdonsiz, vijdonan, vijdon azobi. Bu esa "vijdon" atrofida barqaror semantik maydon shakllanganini ko'rsatadi. Vijdon – ot so'z turkumiga mansub bo'lib, mavhum tushunchani ifodalaydi. Uning leksik ma'nosi axloqiy me'yorlar va qadriyatlar

²Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.

³Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1966.

⁴G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya – Toshkent: O'qituvchi, 1987.

⁵O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: 2002

bilan bog'liq. Leksik kategoriya sifatida *viydon* so'zi tilning boshqa birliklari bilan o'zaro aloqada bo'lib, nutqda turli xil ma'nolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Demak, "viydon" alohida so'z bo'lish bilan cheklanmay, bir nechta leksik birliklarni ma'no jihatdan birlashtiruvchi semantik markaz vazifasini bajaradi. Aynan shu xususiyat uni leksik kategoriya markazi sifatida talqin qilishga asos bo'ladi.

"Viydon" tushunchasining semantik tuzilishiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, semantik jihatdan "viydon" ko'p qatlamli va murakkab mazmunga ega leksik birlikdir. Uning asosiy semantik komponentlari sifatida axloqiy baholash, ichki nazorat, mas'uliyat, pushaymonlik va adolat tushunchalarini ko'rsatish mumkin. Bu semalar inson xulq-atvorini tartibga soluvchi ichki mezon vazifasini bajaradi. Masalan, "viydoni qiynalmoq", "viydon azobi" kabi birikmalarda pushaymonlik va ichki iztirob semasi yetakchi bo'lsa, "viydonli inson" birikmasida ijobiy axloqiy baholash semasi ustuvorlik qiladi. Demak, "viydon" leksik birligi kontekstga qarab turli semantik yuklama kasb etadi.

"Viydon" tushunchasi axloqiy baholash kategoriyasi bilan chambarchas bog'liqdir. U shaxsning o'z xatti-harakatlarini jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlar asosida baholashini ta'minlaydi. Til vositasida bu baholash jarayoni ochiq yoki yashirin shaklda ifodalanishi mumkin. Masalan, "viydonsiz ish qildi" degan nutqiy birlik orqali salbiy baho beriladi, "viydonan toza" birikmasi esa ijobiy baholashni ifodalaydi. Bu holat viydon leksik kategoriyasining baholovchi xususiyatini yaqqol namoyon etadi.

Leksik kategoriyalar ko'pincha abstrakt tushunchalar asosida shakllanadi. "Viydon" ham konkret predmet yoki hodisani emas, balki inson ongida shakllangan axloqiy-me'yoriy tushunchani ifodalaydi⁶. Shu bois u har qanday kategoriya "individual emas, ijtimoiy va madaniy tajriba mahsuli bo'lgan konsept sifatida namoyon bo'ladi". Tilshunoslikda bunday birliklarni konseptual leksika doirasida ko'rilishi, ularning kategoriyalashuv jarayonida muhim rol o'ynashi qayd etilgan. Shu nuqtayi nazardan, "viydon" leksemasi konseptual leksik kategoriya sifatida talqin qilinishi mumkin⁷.

Leksik kategoriya uchun muhim belgilardan biri – derivatsion faollikdir. Bu nuqtayi nazardan "viydon" asosida hosil bo'lgan so'zlar o'zbek tilida keng qo'llanadi. Jumladan, "viydonli", "viydonsiz", "viydonan", "viydonlilik" kabi hosila birliklar shaxs xulqini baholashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu birliklar yordamida axloqiy me'yorlarga moslik yoki nomoslik darajasi ifodalanadi⁸.

Hosila birliklarning faol qo'llanilishi "viydon" tushunchasining til tizimida markaziy o'rin egallaganini ko'rsatadi. Ayniqsa, "-li", "-siz", "-an" affikslari orqali hosil qilingan birliklar baholovchi va normativ ma'noni kuchaytiradi. "Viydon" leksemasi asosida yuzaga kelgan hosila birliklar quyidagilardir: viydonli / viydonsiz (sifat); viydonan (ravish); viydon azobi (barqaror birikma).

Bu hosilalar semantik jihatdan "viydon"ga tayanadi va undan tashqarida mustaqil ma'no hosil qilmaydi. Demak, "viydon" bu yerda leksik asos (yadro) vazifasini bajaradi. Derivatsion tizimning mavjudligi esa "viydon"ni tizimli leksik kategoriya elementi sifatida ko'rsatadi.

⁶Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006

⁷Lyons J. Introduction to Theoretical Linguistics. – Cambridge University Press, 1968.

⁸G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya – Toshkent: O'qituvchi, 1987.

Pragmatik planda “vijdon” tushunchasi nutqda kuchli ta’sir o’tkazish, baholovchi vosita sifatida namoyon bo’ladi⁹. U orqali so’zlovchi tinglovchini ogohlantiradi, ayblaydi, ruhiy bosim o’tkazadi yoki muayyan xatti-harakatga undaydi. Masalan, “vijdongingga qarab ish qil” kabi ifodalar nutqda buyruq va nasihat ohangini kuchaytiradi. “Vijdonli inson”, “vijdonsiz ish” kabi birikmalar esa so’zlovchining axloqiy munosabatini ifodalaydi. Bu holat “vijdon”ni faqat semantik emas, balki pragmatik leksik kategoriya doirasida ham o’rganish imkonini beradi¹⁰. Chunki u nutqda kommunikativ maqsadga xizmat qilib, baholash funksiyasini bajaradi. Shuningdek, “vijdon” tushunchasi o’zini oqlash jarayonida ham faol qo’llanadi. “Men vijdonan to’g’ri ish qildim” kabi jumlar so’zlovchining o’z pozitsiyasini himoya qilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, “vijdon” leksik kategoriyasi semantik, derivatsion va pragmatik jihatlarining o’zaro uyg’unligi asosida shakllanadigan murakkab til hodisasidir. U insonning axloqiy dunyosini, ichki nazorat mexanizmini va baholash mezonlarini ifodalovchi muhim lingvistik birlik hisoblanadi. Yuqoridagi tahlillarga asoslanib shuni ta’kidlash mumkinki, “vijdon” leksemasi barqaror semantik yadroga ega, abstrakt va konseptual mazmunni ifodalaydi, derivatsion jihatdan faol, baholovchi va pragmatik vazifani bajaradi.

“Vijdon” tushunchasining til tizimidagi faol qo’llanilishi uning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu sababli “vijdon”ni oddiy leksik birlik emas, balki mustaqil leksik-semantik kategoriya markazi sifatida talqin qilish va ilmiy jihatdan asosli deb hisoblash mumkin.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. – Toshkent: Fan 2002.
2. :Rahmatullayev Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006.
3. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent:2008.
4. G’ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Morfologiya. — Toshkent: O’qituvchi, 1987.
5. O’zbekiston milliy ensiklopediyasi. –Toshkent: 2002/8
6. Lyons J. Introduction to Theoretical Linguistics. – Cambridge University Press, 1968.
7. Ахманова О. С. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1966.

⁹Lyons J. Introduction to Theoretical Linguistics. – Cambridge University Press, 1968.

¹⁰Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent:2008